

HUDUDLARNI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASI

*Imanova Umida Baxtiyorovna
O`zbekiston Respublikasi
Prezident huzuridagi Boshqaruv
akademiyasi dotsenti*

Kalit so`zlar: moliyaviy resurslar, ijtimoiy farovonlik, iqtisodiy o`shish, moliyaviy nazorat, moliyaviy boshqaruv, davlat moliyasi, korxonalar moliyaviy resurslari, jismoniy shaxslarning moliyaviy resurslari xorijiy moliyaviy resurslar.

Anotatsiya: Ushbu maqola hududlarni rivojlantirish uchun mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga erishishning bir nechta muhim omillari hamda metodologiyasining nazariy ushlari va moliyaviy resurslarni boshqarish turlari va vazifalari haqida yoritib berilgan.

Key words: financial resources, social welfare, economic growth, financial control, financial management, state finance, financial resources of enterprises, financial resources of individuals, foreign financial resources.

Abstract: This article describes several important factors and methods of achieving economic and social stability of the country for the development of regions, as well as theoretical methods and types and tasks of managing financial resources.

Ключевые слова: финансовые ресурсы, социальное обеспечение, экономический рост, финансовый контроль, финансовый менеджмент, государственные финансы, финансовые ресурсы предприятий, финансовые ресурсы физических лиц, иностранные финансовые ресурсы.

Аннотация: В данной статье описаны несколько важных факторов и методов достижения экономической и социальной стабильности страны для развития регионов, а также теоретические методы и виды и задачи управления финансовыми ресурсами.

KRISH. Hududlarni rivojlantirishning ahamiyati hamda davlat boshqaruvi uchun zarurligi nimada? Hududlarni rivojlantirish uchun mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga erishishning bir nechta muhim omillari mavjud bo`lib, bu jarayonning ahamiyatini tushuntirishda quyidagi omillarni ta'kidlab o`tish mumkin:

- Mahalliy iqtisodiyotning mustahkamlanishi
- Infratuzilmani yaxshilash
- Ijtimoiy farovonlikni oshirish
- Barqaror rivojlanish omillari mavjud.

Mahalliy iqtisodiyotning mustahkamlanishi hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yangi ish o`rinlarini yaratish va mahalliy aholini ish bilan ta`minlash hamda ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish sohaslarini kengaytirish bilan izohlashimiz mumkin.

Infratuzilmani yaxshilash esa transport, kommunikatsiya, energetika va boshqa infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish orqali hududni iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh qilish va mahalliy aholini zamonaviy infratuzilma bilan ta`minlash imkoni yaratadi.

Ijtimoiy farovonlikni oshirishning hududlarni rivojlantirishdagi o`rni bu - transport, kommunikatsiya, energetika va boshqa infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish orqali hududni iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh qilsa ikkinchi tomondan mahalliy aholini zamonaviy infratuzilma bilan ta`minlaydi.

Barqaror rivojlanishga erishish uchun hududlarni rivojlantirish orqali ekologik barqarorlikni ta`minlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish va davlat hamda hususiy sektor o`rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi.

Ijtimoiy -iqtisodiy o`shishni ta`minlash uchun samarali moliyaviy boshqaruvning zarurligi va muhim jihatlarining o`zaro bog`liqligini alohida ta`kidlab o`tish kerak ya`ni, resurslarni samarali taqsimlash, investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy barqarorlik, shafoflik va hisobdorlik, innovatsion va moliyaviy vositalarning mavjudligi.

Resurslarni samarali taqsimlash bu – moliyaviy resurslarni optimal taqsimlash orqali strategik maqsadlarga erishish hamda mahalliy loyihalar va dasturlarni moliyaviy qo`llab quvvatlashning zarurligi bilan izohlash mumkin.

Investitsiyalarni jalb qilish uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish va davlat hususiy sheriklikni rivojlantirish muhim omil sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Hududlarni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirish va moliyaviy resurslarni boshqarish bo`yicha bir nechta olimlarning metodologiyalari mavjud bo`lib, jumladan, K.A. Hansen - (Regional Development and Planning) olim bu asarida, hududiy rivojlanish va rejalashtirish bo`yicha keng qamrovli nazariy va amaliy yondashuvlarni taqdim etadi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tamoyillari, metodologiyalarini tushuntiradi. J.B.Davies (Regional economics and policy) asarida hududiy iqtisodiyot va siyosatni o`rganadi, hududiy iqtisodiy o`shish va rivojlanish strategiyalarini taqdim etadi. Moliyaviy resurslarni boshqarish va investitsiya siyosati bo`yicha tavsiyalarni o`z ichiga oladi. Shuningdek, moliyaviy resurslarni boshqarish bo`yicha B.L. Eickhoff (Public financial management) asarida, davlat moliyaviy boshqaruvi, byudjetni rejalashtirish va moliyaviy nazorat bo`yicha metodologiyalarni taqdim etadi. Moliyaviy resurslarni boshqarish va ularning samaradorligini oshirish bo`yicha asosiy printsiplarni tushuntiradi.

METODOLOGIYA. Moliyaviy barqarorlik bu davlat byudjetining barqarorligini ta`minlash va moliyaviy inqirozlarning oldini olish va qarz yukini boshqarish va moliyaviy havflarni kamaytirishni bildiradi.


Shafoflik va hisobdorlikni oshirishda moliyaviy boshqaruvda shaffoflikni ta`minlash orqali korrupsiyaga qarshi kurashish va mahalliy hukumatning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish imkoni beradi.

Innovatsion moliyaviy vositalar zamonaviy moliyaviy texnologiyalar va vositalarni qo`llash bilan moliyaviy boshqaruvni optimallashtirish imkonini beradi va elektron hukumat va raqamli to`lov tizimlarini joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Hududlarni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirish va moliyaviy resurslarni boshqarish bo`yicha olib boriladigan tadqiqotlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- hududiy tahlil va baholash
- Strategik rejalashtirish
- moliyaviy resurslarni boshqarish
- ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish
- monitoring va baholash

Innovatsion yondashuv asosiy vazifalar sanaladi.



1-rasm Hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish va moliyaviy resurslarni boshqarish metodologiyasining tarkibiy qismlari¹

Hududiy tahlil va baholash hududlarning moliyaviy resusrlarini boshqarish amaliyotida qanchalik muhim drajani belgilay oladi va qanday kutuvlarga ega bo`lishi mumkin degan savollarga quyidagicha javob yoki izoh berish mumkin ya`ni, mahalliy iqtisodiyotning hozirgi holatini o`rganaoladi va tahlil qilaolish imkoniyatini yaratadi hamda ijtimoiy iqtisodiy ko`rsatkichlarni baholay olish imonini yaratdi.


Strategik rejalashtirish – hududlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqadi va mahalliy rivojlanish uchun asosiy yo`nalishlarni aniqlay oladi.

¹ Ma`lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi

Moliyaviy resurslarni boshqarish – mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyalarini ishlab chiqish va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish usullarini o`rganishdir.

TADQIQOT NATIJASI. Moliyaviy boshqaruv- bu tashkilot yoki davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish jarayoni. Bu jarayonning maqsadi tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta`minlash, moliyaviy maqsadlarga erishish va iqtisodiy o`shishni rag`batlantirishdir.

Moliyaviy resurslar bu korxonalar, davlat va boshqa tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo`lgan mablag`lar. Moliyaviy resurslar quyidagi turlarga bo`linadi:



2-rasm Moliyaviy resurslar turlari²

Davlat moliyaviy resurslari o`z o`rnida byudjet mablag`lari va davlat qarzlariga bo`linadi. Korxonalar moliyaviy resurslari o`z mablag`lari va qarz mablag`lari evaziga shakillanadi. Ularga korxonaning o`z mablag`lari jumladan foyda va amortizatsiya hamda qarz mablag`lari qatoriga kredit, obligatsiya va lizinglar kiradi. Jismoniy shaxslarning moliyaviy resurslariga omonatlar – bank omonatlari va boshqa investitsiya vositalarini sanash mumkin hamda kredit, ipoteka boshqa mablag`lari hisoblanadi. Xorijiy moliyaviy resurslarga- xorijiy investitsiyalar, xalqaro kreditlar va grantlar kiradi.

² Manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi

Ўзбекистон Республикаси номидан ва давлат кафолати остида имзоланган ташқи қарз битимлари ҳажми
(01.07.2022 й. ҳолатига)




3-рasm O`zbekiston respublikasi nomidan va davlat kafolati ostida imzolangan tashqi qarz bitimlari³

Moliyaviy boshqaruv jarayonlari quyidagi boshqaruv jarayonlarni o`z ichiga oladi. Ya`ni, moliyaviy rejalashtirish, bu rejalashtirish strategik hamda taktik rejalashtirish yo`nalishlarini qamrab oladi. Strategik rejalashtirishda uzoq muddatli moliyaviy maqsadlar va strategiyalarni belgilaydi. Taktik rejalashtirish esa o`rta muddatli moliyaviy rejalar va byudjetlarni ishlab chiqish jarayonidir. Moliyaviy tahlil va nazorat boshqaruv jarayonlari moliyaviy hisobotlar va moliyaviy nazorat yo`nalishlarini o`z o`rnida belgilaydi. Bu jarayonning vazifalari moliyaviy ko`rsatkichlarni baholaydi tahlil qiladi hamda moliyaviy rejalar va byudjetlarning amaldagi holatini nazorat qiladi. Boshqaruvning moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga investitsiya qarorlari va moliyaviy risklarni boshqarish yo`nalishlari kiradi. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratki, investitsiya loyihalari va moliyaviy aktivlarga investitsiya qilish bo`yicha qarorlar qabul qiladi. Moliyaviy risklarni baholash va ularni kamaytirish chora tadbirlarini ishlab chiqadi. Moliyaviy resurslarni boshqarish likvidlikni boshqarish demakdir. Moliyaviy hisobotlar jarayoniga moliyaviy hisobotlar tuzish, moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi hisobotlar tayyorlash, moliyaviy axborotlarni taqdim etish vazifalari

³ Moliya vazirligi ma`lumotlari asosida

kiradi.



2- rasm Moliyaviy boshqaruv jarayonlari metodolgiyasi⁴

XULOSA

Xulosa qilib, aytganda, hududlarni rivojlantirish va moliyaviy resurslarni boshqarish mamalakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Hududlar iqtisodiyotining mustahkamlanishi – mahalliy rivojlanish yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirish orqali iqtisodiy faollikni oshiradi. Bu o'z navbatida aholi daromadlarini oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Hududlarni infratuzilma jihatidan rivojlantirish – transport, kommunikatsiya, energetika kabi tuzilmani tarmoqlarini rivojlantirish orqali hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish va aholini zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash mumkin. Bu o'z o'rnida iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va ijtimoiy farovonlikni yaxshilaydi.

Hududlarning ijtimoiy farovonligini oshirishning ijobiy jihatlari –yaxshi rivojlangan infratuzilma ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida yuksak xizmatlarni taqdim etish imkoniyatini beradi, bu esa aholi farovonligini oshiradi.

⁴ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi

Barqaror rivojlanish - ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali hududlarni uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytrish mumkin.

Moliyaviy boshqaruvning samaradorligi hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Hududlarni rivojlantirish va moliyaviy resurslarni boshqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun hududiy tahlil, strategik rejalashtirish, moliyaviy resurslarni boshqarish, ijtimoiy infratuzilmani keng qo'llash zarur. Bu yondashuvlar hududiy rivojlanishni strategik darajada qo'llab-quvvatlashga, iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. K.A. Hansen "Regional Development and Planning" -2010 y
2. J.B.Davies "Regional Economics and Policy" -2008 y
3. B. L. Eickhoff "Public Financial Management"- 2012y
4. J. L. Mikesell "Financial Management in the Public Sector: Tools, Applications, and Cases" – 2015 y\
5. J. M. Bryson "Strategic Planning for Public and Nonprofit Organizations" – 2018 y
6. Imanova U.B. Budget planning in the finance management system. // International journal of research. IJR. P-ISSN: 2348-68. E-ISSN:2348-795-x. Vol. 07 Issue 04, 2020. <https://edupediapublications.org/journal>. Pp. 711-717.
7. Imanova U.B. Prospects for medium-term local budget planning. // International Sciences Journal Theoretical & Applied Science. DOI:10158663. p-ISSN: 23-08-9944 (print) e-ISSN:2409-0085 (online), 2020. Issue: 04 Vol. 84 published: 12.04.2020. Pp. 84-87.
8. Imanova U.B. Mahalliy budjetlarni o'rta muddatli rivojlantirish istiqbollari investitsiyalarning ahamiyati va ularning roli. // O'zbekiston fanlar akademiyasi mintaqaviy bo'limi Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2020. 7-son. 69-73-b.
9. Imanova U.B. Mahalliy budjetlarni o'rta muddatli rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy asoslari. // O'zbekiston fanlar akademiyasi mintaqaviy bo'limi Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2020. 9-son. 90-92-b.
10. Imanova U.B. O'rta muddatli budjetlashtirish amaliyotida budjet jarayonini kompleks ravishda moslashtirish. // Innovatsionnye podxody v sovremnoy nauka: Sbornik statey po materialam LXXIV mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konfrensii. № 14 (74), 2020. S. 122-125.

